

KASBIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI

T.f.d dotsent. Z.L.Botirov

Assistent. X.Ilhomov

Annotasiya. Umumta'lim o'qituvchilari o'rganiladigan nazariy ma'lumotlarni aniqlashtirib, o'quvchilarni bo'lajak kasbiy faoliyatida fanlararo aloqadorlikni qo'llanilish imkoniyatlaridan unumli foydalanishlarini ta'minlaydilar. Misol tariqasida fizika kursini ko'rib chiqamiz. Qishloq kasb-hunar kollejida elektr maydonini o'rganish vaqti, xususan bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan elektr maydoni tushuntirilganda, urug'ni turlarga ajratishda va yuzasini bo'yashda bir jinsli bo'lmagan maydon qo'llanilishini ko'rib chiqish mumkun.

Kalit so'zlar: umumta'lim, kasbiy, mahorat, mutaxassis, elektr, energiyani, yo'nalish, fanlararo.

Yangi tipdagi o'quv turi hisoblangan o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limiga yuksak kasbiy mahorat egasi bo'lgan kichik mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

Kasbiy mahorat asosini mehnat malakalari tashkil etadi. Mehnat malakalarini shakllantirish, takomillashtirish yo'llaridan biri bo'lib, fanlararo aloqadorlikni ta'minlaydi. Kasb-hunar kollejida umumta'lim, umumtexnik, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida malakani shakllanishi bilimni samarali qo'llash bilan bog'lik. Fanlararo aloqadorlik ko'p qirrali va ko'p funksiyali hodisadir. Kasbiy tayyorgarlikda fanlararo aloqadorlikni quyidagi xususiy turlari mavjud:

- umum ta'lim fanlarini o'qitishda kasbiy yo'naltirishni oshirish;
- fanlararo kompleks vazifalarni qo'llash;
- fan to'garaklarida kasbiy yo'naltirishni ta'minlash.

Umumta'lim fanlarini kasbiy yo'naltirishda ushbu fanlarni ilmiy darajasi pasayishiga yo'l qo'yilmaydi hamda uning ichki tuzilishi va mantiqini buzmasdan amalga oshiriladi. Umumta'lim o'qituvchilari o'rganiladigan nazariy ma'lumotlarni aniqlashtirib, o'quvchilarni bo'lajak kasbiy faoliyatida fanlararo aloqadorlikni qo'llanilish imkoniyatlaridan unumli foydalanishlarini ta'minlaydilar. Misol tariqasida fizika kursini ko'rib chiqamiz. Qishloq kasb-hunar kollejida elektr maydonini o'rganish vaqti, xususan bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan elektr maydoni

tushuntirilganda, urug‘ni turlarga ajratishda va yuzasini bo‘yashda bir jinsli bo‘lmagan maydon qo‘llanilishini ko‘rib chiqish mumkin. «Kondensatorlar» mavzusini o‘rganish darsida o‘quvchilar sig‘imli nam o‘lchagich tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganib, uning ish jarayoni urug‘ni dielektirik o‘tkazuvchanligi va namligiga bog‘liq ekanligi bilan tanishadilar. Keltirilgan ikki misoldan ko‘rinib turibdiki, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv materialini tushuntirishga bir necha daqiqa sarflanadi, ammo uning mehnat malakasini shakllantirishda nazariy bilimlarni qo‘llash imkonini salmoqli darajada oshiradi.

Fan to‘garaklarida kasbiy ahamiyatga ega nazariya, tushuncha, hodisalar chuqurroq o‘rganilishi mumkin. Dasturda belgilangan umumta’lim, maxsus fanlarni amaliy mazmundagi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Masalan, elektr yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejni kimyo to‘garagida izolatsiya materiallar, o‘tkazgichlar, sim va kabellar, optik tolali materiallar kimyoviy tarkibi, hossalari, ularni olish, hosil qilish va ishlab chiqarishda qo‘llash masalalari o‘rganiladi. Imkoniyat mavjud bo‘lgan sharoitda noorganik materiallarga taalluqli elektr materiallari bilan amaliy-laboratoriya ishlari o‘tkazadilar, elektromexanikani kimyo bilan bog‘liq ishlab chiqarish xarakteridagi masalalar yechiladi.

O‘quvchilarda kasbiy faoliyatga oid bilimlar shakllantirishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib, fanlararo kompleks vazifalardan hisoblanadi.

Fanlararo kompleks vazifalar ishlab chiqishda umumta’lim, maxsus fanlar o‘qituvchilari, ishlab chiqarish ta’limini usta-muhandislari bevosita ishtirok etadi. Fanlararo kompleks vazifa individual xarakterga ega va ikkita o‘zaro bog‘liq qisimdan iborat: hisoblash qismi – bunda o‘quvchi nazariy xarakterli mustaqil ishda egallagan bilimlarini kompleks qo‘llaydilar; amaliy qisim – o‘quvchi hisoblagan, tuzgan chizma, ish bajarish texnologiyasi asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun o‘quvchi, turli fanlardan ma’lum bilimga ega bo‘lishi, texnik adabiyot, ma’lumotnoma bilan ishlay olishi lozim. Misol tariqasida «Yoritish tarmoqlarini elektromanteyori» mutaxassislikka oid fanlararo kompleks vazifani keltiramiz.

1. Elektr yoritkichiga parallel ravishda qo‘shimcha yoritgich ulanganda tokning qiymati o‘zgaradimi ?

2. Elektr hisoblagich bo‘lmaganda elektr energiyaning sarflanishini qanday o‘lchash mumkin ?



3. Metallarni solishtirma o‘tkazuvchanligi qanday tavsiflanadi? Solishtirma o‘tkazuvchanlik qanday omillarga bog‘liq ?

4. Elektr energiyaning sarflanishi o‘tkazgichning turi va uning ko‘ndalang kesim yuzasiga bog‘liqmi ?

5. Elektr mashinalarda quvvat isrofini qanday kamaytirish mumkin ?

Kompleks vazifalar ayniqsa mutaxassislik fanlar majmuasi bilan ishlab chiqarish ta’limini uzviy aloqadorligini ta’minlaydi.

Fanlararo aloqadorlik kasbni nazariy asoslarini qiziqarli va maqsadli bo‘lishini ta’minlab, o‘zlashtirilgan bilimni amaliy faoliyatda sifatli qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogy and Practice; Teaching and Learning in Secondary Schools.

2. Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.

3. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and education . Pearson Education Inc.

4. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik T.: 0 ‘qituvchi 2008-yil.

5. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.

6. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil

7. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: 0 ‘qituvchi 2010-yil.

8. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2009-yil.

9. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mullahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.

10. Ergashevna, S. N. (2023). NARRATIVE REPERTOIRE AND ITS INFLUENCE ON THE EPIC TRADITION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 12(3), 33-43.



Research Science and
Innovation House

